

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

**TARIX DARSLARI JARAYONIDA O'QUVCHILARNING XOTIRASINI
MUSTAHKAMLASH VA O'QUVCHIGA YONDASHISH BO'YICHA TEKNOLOGIYALAR**

Tirkashova Shahlo Tinchlikovna

Navoiy viloyati Nurota tumani

33- umumiy o'rta ta'lim maktabi

Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Umumta'lismaktablari tarix darslari jarayonida o'quvchilarning xotirasini mustahkamlash, ularda ijodiy fikrlash, mustaqil bilim egallash ko'nikmalarini rivojlantirish va o'zlarida bor bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni yangi vaziyatlarga qo'llash xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *texnologiya, ko'nikma, malaka, psixologiya, xotira*

Darsda yangi o'quv materialini chuqurroq o'zlashtishning muhim sharti va vositasi o'rganiladigan faktlar va umumiylar xulosalarni muntazam ravishda xotirada mustahkamlashb borishdir. O'quvchilarning har qaysi darsda o'rganiladigan materialni o'sha darsning o'zida ikkinchi marta idrok qilib va tushunib olishlari materialni xotirada mustahkamlash deb ataladi. Tarix darslarida yangi materialni xotirada mustahkamlashning asosiy maqsadi – o'rganiladigan dalillarni, sanalarni, tarixiy arboblarning ismini, geografik nomlarni, tarixiy tushunchalarni o'quvchilarning puxta va ongli ravishda bilib olishlariga yordam berish, shularni o'zlashtirishda kamchiliklar bo'lismiga yo'l qo'ymaslik, yangi o'rganiladigan materialni ilgari o'zlashtirilgan material bilan yaxshiroq bog'lash, darsda o'rganiladigan materialni o'quvchilar qaydarajada o'zlashtirayotganini tekshirish va shu bilan ularning darsda diqqat – e'tiborlarini kuchaytirishga yordam berishdir.

Psixologiya fanida ta'kidlanishicha, o'rganiladigan dalil va hodisalar shu darsning o'zida o'quvchilarga yana bir marta eslatilmasa, ayniqsa tez unutiladi. Binobarin, yangi materialni o'rganish jarayonidayoq bilimlarning o'quvchi xotirasida yaxshi saqlanib qolishiga yordam beradigan sharoitlar yaratish, yangi bilimlarni eski bilimlar bilan, ma'lum bo'limgan narsalarni ma'lum bo'lgan narsalar bilan bir – biriga bog'lab, o'quvchilar xotirasida endigma paydo bo'layotgan va hozircha hali zaif holda bo'lgan bu bog'lanishlarni mustahkamlash, keyin esa qo'shimcha usullar yordamida ularni o'quvchilarning yanada chuqurroq esda olib qolishlarini ta'minlash uchun o'quvchilardagi mavjud bilimlarni ishga solish zarur.

Xotirada mustahkamlash ishga yangi materialni o'rganish bilan chambarchas bog'langan bo'lib, yangi materialni o'rganish jarayonida, shuningdek, dars oxirida tashkiliy suratda o'tkaziladi. VI – VII sinflarda esa bu ishni, odatda, dars davomida ham, dars oxirida ham olib borish kerak. Tarixiy materialni xotirada mustahkamlash usullari quyidagicha: Masalan, VI – VII sinflarda hozirgina o'rganilgan materialning

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

mazmuni yuzasidan dars oxirida suhbat olib borish usuli keng tarqalgan. Lekin bu suhbatda mazkur yangi materialning hammasini gapirib o'tish noto'g'ri bo'ladi. Eng murakkab va muhim masalalarni tanlab olib, o'shalar haqida so'z yuritish zarur. Xotirada mustahkamlanadigan masalalar, avvalo, o'rganilayotgan materialning mazmuniga qarab tanlanadi.

Agar o'qituvchi bayon qilgan material siyosiy tarixga doir voqealarning tasviriy hikoyasi xarakterida bo'lsa, uni xotirada mustahkamlash vaqtida, ba'zan hikoya mazmunining eng muhim qismi rejasini tuzish, ba'zan esa voqealarning (masalan, qo'zg'olonlar va urushlarning) sabalari, o'qibatlari va ahamiyatini faqat tahlil qilib chiqish kifoya qiladi.

Agar yangi materialda jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotidagi murakkab jaaryonlar bayon etilgan bo'lsa, uni xotirada mustahkamlash vaqtida tarixiy jarayonning hamma asosiy tarkibiy qismlarini va ular o'rtaсидаги sabab – natijali bog'lanishlarni o'quvchilarga birma – bir eslatish kerak.

Xo'jalik taraqqiyotining yangi xususiyatlarini va shaharning qishloqdan farqini aytib berishni talab etuvchi savollar o'rganilgan materialni xotirada mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, ilgari o'zlashtirilgan bilimlar bilan yangi bilimlarni bir – biriga bog'lovchi halqa bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, ular o'quvchilarning tafakkurini o'stirish vositasi hamdir.

Bir qancha hollarda, materialni xotirada mustahkamlash uchun beriladigan topshiriqlarga hujjatdan olingan kichikroq parchani tahlil qilishni yoki o'rganilgan materialdagi muhim masalalar yuzasidan bilishga undaydigan mashq bajarishni kiritish ma'quldir. Masalan, yuqorida tahlil qilib ko'rib chiqilgan darsda, orta asr shaharlarining dastlabki o'sishiga yordam bergan sharoitlarni o'quvchilarning yodida yaxshi qoldirish uchun ularga quyidagi mashqni berish mumkin.

"Hujjatlarda aytishicha, bir qancha yangi shaharlarning dastlabki senyorlari (shahar bino qilingan yerlarning egalari) shu shaharlarga ko'chib kelgan odamlarni... ular orasida qishloqlardan – o'z feedallaridan qochib kelgan krepostnoylar bo'lishiga qaramay. Shahar yer soliqlarini to'lashdan ozod qilardilar. Bu dalillarning sababini aytib bering".

Agar o'quvchilar o'qituvchining tushuntirishlarini yetarli diqqat – e'tibor bilan tinglashga hali odatlanmagan bo'lsalar va darsning asosiy mazmunini gapirib berishga qiynalsalar, o'tilgan darsni xotirada mustahkamlash vaqtida ular oldiga o'qituvchi so'zlab bergan asosiy dalillarni takror aytib berishni talab etuvchi savollar qo'yish foydalidir. Bunda o'quvchilar dalillarni ularning o'zaro bog'lanishlari va munosabatlari bilan ko'rsatib, ular haqida zarur xulosalar chiqarishlari lozim.

Shu bilan birga, o'quvchilarning o'z javoblarini hozirgina o'rganilgan materialni aynan so'zma – so'z takrorlashga aylantirib yubormasliklariga harakat qilish kerak.

O'quvchining materialni bayon qilish yo'llini materialning dastlabki bayonidan burmuncha boshqacharoq yo'lga burib yuborish o'qituvchining mahoratiga bog'liqdir.

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

Masalan, o'qituvchi xalifalik mamlakatlarida fan va san'atning rivojlanishi to'g'risidagi materialni xotirada mustahkamlash vaqtida VII sinf o'quvchilari oldiga uni oddiygina qayta gapirib berish o'rniqa Markaziy Osiyo xalqlarning, shu bilan birga

boshqa Sharq xalqlarining jahon madaniyatiga qo'shgan hissasini aytib berishni vazifa qilib qo'yishi mumkin.

Butun mavzuning materialini takrorlash va xotirada mustahkamlash vaqtida o'quvchilarga o'rganilgan hodisa qanday sodir bo'lganini va uning rivojlanishidagi ma'lum bosqichlarni esga olishni yoki bir turli dalillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni ko'rsatib berishni, o'rganilayotgan voqealarning boshqa mamlakatlar va xalqlar tarixidan ma'lum bo'lgan voqealar bilan sinxronligini aniqlashni taklif qilish mumkin. Lekin o'quvchilardan samarali fikrlashni talab etuvchi bunday savollarni o'rtaqa qo'yish dalillarni takror aytib berishni talab etadigan savollar berishni mustasno qilmaydi, chunki bunday savollar o'sha dalillarni va ular o'rtasidagi muhim bog'lanish va munosabatlarni bolalarning esida yaxshi qoldirishga, ularning o'zlashtirishini tekshirib ko'rishga yordam beradi.

Shunday qilib, materialni xotirada mustahkamlash vaqtida oddiy takrorlash (reproduktiv) va samarali fikr yuritish (produktiv) xarakteridagi javoblar qaytarishni talab etadigan savollarni o'quvchilarga joyiga qarib aralash berib borish kerak. O'quvchilarning o'qituvchi hikoyasi yuzasidan reja tuzishlari, sinf doskasida va o'z daftarlarda murakkab bo'lмаган xronologik va sinxronik jadvallar tuzishlari yangi materialni esda saqlab qolishlariga yordam beradi.

O'quvchilarning makon tasavvurlarini kengaytirish va mustahkamlash uchun darsda kontur xaritadan osonroq mashqlar o'tkazish foydalidir. O'quv suratining mazmunini esda yaxshi qoldirishni ham, odatda, yangi materialni o'rganisgda beriladigan savollarni oddiygina takrorlashdan iborat qilib qo'yish yaramaydi. Bu paytdagi savollar o'rganiladigan hodisalar o'rtasidagi yangi bog'lanish va munosabatlarni o'quvchilarga ko'rsatib beradigan va ularning suratni mustaqil tahlil qilish uchun o'z bilimlarini tatbiq eta bilishlariga yordam baradigan savollar bo'lishi kerak. Masalan, Germaniyada dehqonlar urushi o'tilayotgan darsda "Myunser Frankenxauen shahri yaqinida" nomli texnika vositasi o'rqli ko'rsatiladigan yoki devorga osib qo'yiladigan ko'rgazmaning mazmuni tahlil qilinadi. Bu surat mazmunini xotirada mustahkamlash vaqtida o'quvchilarga dehqonlarning yengilish sabablarini eslash va surat mazmuni assosida umumlashtirishni taklif qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, hozirda yoshlarda mustaqillik ma'naviyatini tarbiyalash barcha tarixiy – madaniy boyliklarning asosiy tomonlarini o'rganish, milliy madaniyatimiz rivoji, davrlari, taraqqiyot qonuniyatları, ma'naviy boyliklarni yaratgan yirik siymolar, donishmand adiblarning merosini o'zlashtirish, boshqa rivojlangan mamlakatlar madaniyati yutuqlarini o'rganish, ularga hurmat – izzatda bo'lishi, bu masalalar bo'yicha keng ta'lim, o'quv – o'qituv ishlarini olib borish talab etadi. Bu mustaqillik sharoitida yosh avlodni milliy – madaniy boyliklarini yaxshi

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

bilgan, milliy g'urur, vatanparvarlik hissi bilan yo'g'rilgan, dunyo madaniy rivojlanish darajasidan xabardor bo'lib yetishuvida yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Farberman B.L. Progressinie pedagogicheskie texnologii.-T.,1999.
2. B. Farberman Ilgor pedagogik texnologiyalar FAN T., 2000.
3. Ziyomuxammedov B.G. Abdullayeva SH. Ilg'or pedagogik texnologiya.T., Abu Ali ibn Sino, 2001.
4. Aganov I.G. K voprosu o formirovaniye kriticheskogo obrazovaniye. 2001.№2.
5. www.ziyonet.uz